

O'ZLIGINGDIR

Oftob bo'lib boqar bo'lsang,
Mohtob bo'lib yoqar bo'lsang,
Daryo bo'lib oqar bo'lsang,
El-yurtim deb sahar tursang:
O'zligingdir, O'zligingdir!

O'tmishingni suyuq bilsang,
Tarixingni buyuk bilsang,
Buyuk zotlar ishin qilsang,
G'animlarning bag'rin tilsang:
O'zligingdir, O'zligingdir!

Ota-onang davlatingdir,
Qondoshlaring – savlatingdir,
Ilm-hunar – shavkatingdir,
Zahmat cheksang – rohatingdir:
O'zligingdir, O'zligingdir!

Yuragingda armoning ko'p,
Yoshligingda darmoning ko'p,
Istar bo'lsang – imkonning ko'p,
Gar intilsang – sha'n-shoning ko'p:
O'zligingdir, O'zligingdir!

Vujudingda g'ayrat toshsa,
Ona yurtga mehring oshsa,
Tabiatga bag'ring ochsang,
Muhabbating to'lib-toshsa:
O'zligingdir, O'zligingdir!

Ajdodlaring yoʻlin tutsang,
Avlodlaring qoʻlin tutsang,
Toʻsiqlarni yorib oʻtsang,
Mehnat qilib baxting kutsang:
Oʻzligingdir, Oʻzligingdir!

Ona tiling saqlar boʻlsang,
Adolatni yoqlar boʻlsang,
Chin mardlik-la chaqnar boʻlsang:
Oʻzligingdir, Oʻzligingdir!
Oʻzligingni borliging bil!

HAYOT QO'SHIG'I

Bag'ishlov

Nechun kerak boʻldi bu yorug' olam?
Nechun yaratildi borliq, mavjudot?
Oʻz qadrin bilarmi har qaysi odam,
Qandayin zamonlar kutmoqda, hayhot?!

Bugun ingramoqda ona tabiat,
Izidan chiqmoqda muhit, neki bor.
Inson bolasida bormikin jur'at –
Kimlar kelajakka qilar e'tibor!

Yonib ketmoqdadir minglab oʻrmonlar,
Dahshat: suv toshqini, yer silkinishi!
Ortib bormoqdadir choʻl-biyobonlar –
Tabiiy ofatlar – inson qilmishi!..

Mudhishligin bilsa gar Oppengeymer
Atom bombasini yaratarmidi?!
Bugun yer qa'rini har kim nimtalar –
Chiqindi g'aramin tugatarmidi?

Aqli rasolarni tashvishga solgan
Hayotiy jumboqlar bo'lar midihal?
Vatandosh do'stlarim! Qalbdan joy olgan
O'tmishga chuqurroq solaylik nazar.

«Avesto» jildlarin yaratar ekan –
Zardusht ezgulikni maqsad deb bildi.
Xalqchil g'oyalari edi xo'b ulkan,
Iskandar qo'lida o'tda yoqildi!

Makedoniyalik bu vahshiy inson
O'ttiz uch yoshida jabrini tuydi,
Xatolarin anglab bo'lib pushaymon,
Ajal yostig'iga boshini qo'ydi.

Arablar, mo'g'ullar zo'ravonligi
Mash'um xotiradir qonli o'tmishdan,
To'maris davridan Eron xonligi
Bosqinlik bobida bo'ldi o'zishda!..

Spitamen, Muqanna va Jaloliddin
Bosqinchi yovlarni yanchib tashladi!
Ular xotirasi hamisha yorqin –
Mardlik jasorati mangu yashaydi!

Islomiy olamning buyuk sarvari
Muhammad payg'ambar bag'rini ochdi:
Qur'oni karimda Alloh gavhari –
Iymon-e'tiqodning yog'dusin sochdi!

Muhammad Ismoil Imom Buxoriy
Hadislar ilmining tojdori bo'ldi!
Nafaqat arablar, barcha xorijiy
Qur'on hikmatlarin ziyosin ko'rdi!

Alloh qudrati-la buyuk siymolar:
Forobiy, Beruniy, ibn Sinolar
Tavallud topdilar bizning Vatanda,
Bugun ham ularni jahon tan olar!

Xorazm farzandi Mahmud Zamaxshariy
«Allohning qo'shnisi» degan nom oldi.
Ilmda nur sochdi bo'lib mushtariy –
Millatlar tiliga u asos soldi!

Al-Xorazmiy riyoziyot ilmini
Aljabr nomi-la boyitdi g'oyat!
Al-Farg'oniy fanga bog'lab dilini –
Qomusiy alloma bo'ldi, nihoyat!

Jaholat pardasin parchalab tashlab
Ma'rifat eshigin ochdi Ulug'bek.
Uning himmatidan yuksaldi yoshlar –
Dunyoviy ilmga berilgandi erk!

Miram Chalabi-yu, Ali Qushchilar
Riyoziyot ilmida bo'ldilar olim,
Ammo in qurgandi xurofiy kuchlar –
Tahdid solishardi tahqirlab doim!

Ming o'n sakkiz yulduzning ilmiy tavsifi
«Ziji Ko'ragoniy» nomini oldi.
Ularni o'rganmoq zarur batafsil –
Mirzo Ulug'bekdan dur bo'lib qoldi!

Alloma va shoir, davlat arbobi –
Hazrat Navoiyga bo'lmadi oson,
Hatto kechalari yo'q edi xobi –
Asarlar yaratdi butun bir jahon!

«Xamsa» dostonlari, «Chor devon»lari
Naqadar sochmishdir xushbo'y iforin!
«Mahbub-ul qulub»dir axloq gavhari –
Navoiy sochmishdir yurakda borin!

Ogahiy yetishdi zo'r shoir bo'lib –
Xorazm yurtining bo'ldi shon-faxri!
Ash'orin o'qiysan quvonchga to'lib,
G'oyat olqishlaydi nafosat ahli!

Qo'qonlik shoirlar Muqimiy, Furqat
Ijodin bezaydi xalqchil asarlar.
Zamona zulmidan ko'rdilar kulfat –
Jasorat ko'rsatib yozmish g'azallar!

Otashin kuychilar Avaz va Zavqiy
Notinch zamonada ash'or bitdilar.
She'riyat bo'stoni rom aylar qalbing –
Mehr bulog'idan sharbat tutdilar!

Ayting-chi, qaysi yurt, qaysi zamonda
Ulug' shoirlalar dunyoga kelgan?
Nodira, Uvaysiy yashab Qo'qonda
Nazm gulshanidan chechaklar tergan!

Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho'lpon
Yorqin iste'dod-la – millat darg'asi!
Nohaqlik yo'lida bo'ldilar qurbon –
O'zbekim qalbida qoldi yarasi!

Ne-ne buyuk zotlar yashab o'tdilar –
Barchasi sig'maydi bitta qo'shiqqa!
Har biri durdona meros tutdilar –
Hech qachon aylanmas ular bo'shliqqa!

Alloh qudrati-la buyuk siymolar:
Forobiy, Beruniy, ibn Sinolar
Tavallud topdilar bizning Vatanda,
Bugun ham ularni jahon tan olar!

Xorazm farzandi Mahmud Zamaxshariy
«Allohning qo'shnisi» degan nom oldi.
Ilmda nur sochdi bo'lib mushtariy –
Millatlar tiliga u asos soldi!

Al-Xorazmiy riyoziyot ilmini
Aljabr nomi-la boyitdi g'oyat!
Al-Farg'oniy fanga bog'lab dilini –
Qomusiy alloma bo'ldi, nihoyat!

Jaholat pardasin parchalab tashlab
Ma'rifat eshigin ochdi Ulug'bek.
Uning himmatidan yuksaldi yoshlar –
Dunyoviy ilmga berilgandi erk!

Miram Chalabi-yu, Ali Qushchilar
Riyoziyot ilmida bo'ldilar olim,
Ammo in qurgandi xurofiy kuchlar –
Tahdid solishardi tahqirlab doim!

Ming o'n sakkiz yulduzning ilmiy tavsifi
«Ziji Ko'ragoniy» nomini oldi.
Ularni o'rganmoq zarur batafsil –
Mirzo Ulug'bekdan dur bo'lib qoldi!

Alloma va shoir, davlat arbobi –
Hazrat Navoiyga bo'lmadi oson,
Hatto kechalari yo'q edi xobi –
Asarlar yaratdi butun bir jahon!

«Xamsa» dostonlari, «Chor devon»lari
Naqadar sochmishdir xushbo'y iforin!
«Mahbub-ul qulub»dir axloq gavhari –
Navoiy sochmishdir yurakda borin!

Ogahiy yetishdi zo'r shoir bo'lib –
Xorazm yurtining bo'ldi shon-faxri!
Ash'orin o'qiysan quvonchga to'lib,
G'oyat olqishlaydi nafosat ahli!

Qo'qonlik shoirlar Muqimiy, Furqat
Ijodin bezaydi xalqchil asarlar.
Zamona zulmidan ko'rdilar kulfat –
Jasorat ko'rsatib yozmish g'azallar!

Otashin kuychilar Avaz va Zavqiy
Notinch zamonada ash'or bitdilar.
She'riyat bo'stoni rom aylar qalbing –
Mehr bulog'idan sharbat tutdilar!

Ayting-chi, qaysi yurt, qaysi zamonda
Ulug' shoirlalar dunyoga kelgan?
Nodira, Uvaysiy yashab Qo'qonda
Nazm gulshanidan chechaklar tergan!

Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho'lpon
Yorqin iste'dod-la – millat darg'asi!
Nohaqlik yo'lida bo'ldilar qurbon –
O'zbekim qalbida qoldi yarasi!

Ne-ne buyuk zotlar yashab o'tdilar –
Barchasi sig'maydi bitta qo'shiqqa!
Har biri durdona meros tutdilar –
Hech qachon aylanmas ular bo'shliqqa!

O'lkada bo'lsaydi erkinlik, hurlik –
Yorqin iste'dodlar bo'lardi talay,
Afsus, boshga tushdi razolat, qullik,
Ammo fursat keldi, payt keldi qulay.

Shoyadki, istiqlol tongi yorishdi –
Bobolar orzusi endi ushaldi:
Endi musulmonlar hajga borishdi,
Qutlug' qadamiga gullar to'shaldi!

Tarix eshiklari katta ochildi –
O'tmish merosimiz nasib ayladi!
Qadriyat durlari elga sochildi –
Hur hayot qo'shig'i endi yangradi!

Xurofot sarqiti deya atalgan
Fayz-u chiroy ochdi beshik to'ylari!
Sunnat, nikoh to'yi g'oyat avjida –
Har kun taralmoqda shodlik kuylari!

Yurtdoshim – O'zbekim! Belingni bog'la –
Ulkan maqsad sari o'zingni chog'la!
Baralla yangrasin hayot qo'shig'i –
Mehnatdan baxt topib qadring ardoqla!

VATAN MENING SAJDAGOHIMDIR

Qo'shiq

Vatan mening sajdagohimdir,
Ham quvonchim hamda ohimdir.
Vatan otam, onajonimdir,
Vatan tog'im, Eram bog'imdir.

Naqarot

Vatan mening tanda jonimdir,
Tomirimda oqar qonimdir!

Tuprogi zar muqaddas yurtim,
Seni sevmoq – farzandlik burchim!
Nur maskanim, mohim, oftobim,
Fido aylay senga bor kuchim!

Naqarot

Vatan mening tanda jonimdir,
Tomirimda oqar qonimdir!

Sen Allohning buyuk ne'mati,
Baxti kulgan inson qismati!
Bobolarim, momolarim ham
Qadrlagan sha'ning, izzating!

Naqarot

Vatan mening tanda jonimdir,
Tomirimda oqar qonimdir!

Ajdodlari suygan Vatanim,
Avlodlari suygan Vatanim,
Shunqorlaring qo'llari guldir –
Sen hamisha bo'ston chamanim!

Naqarot

Vatan mening tanda jonimdir,
Tomirimda oqar qonimdir!

DORILAMON ZAMON KELDI

Har insonning o'z yurti bor –
yig'lab tushgan maskani!
Faryodida aylar izhor
manglayida yozganin...

Mening yurtim – O'zbekiston,
go'zallikda tengi yo'q!
Suvi – sharbat, bog'i – bo'ston,
yuraklarga solar cho'g'!

Mo'jizali fasllari
hech bir yurtda uchramas,
Mard-u maydon nasllari
nopoklikni xushlamas!

Ulug' zotlar bu o'lkada
yashab ijod etdilar,
Ziyo topmay tun – ko'lkada
boqiy asar bitdilar!

O'tmishimiz buyuk qilgan
shul fozillar emasmi?
Ona yurtni suyuk bilgan –
jonin sadqa etmasmi?

Bugun ular bizlar bilan
birga-birga yashaydi!
Madad berib sidqidildan
olg'a qadam tashlaydi!

Milliy sozga jon baxsh etgan
al-Forobiy – bir jahon!
She'riyatga sha'n naqsh etgan
Navoiy – mulki kalom!

Insoniyat baxti uchun
Ibn Sino yaraldi,
Alp pahlavon Mahmud kuchi
olam aro taraldi!

Riyoziyot ziyo nurin
al-Xorazmiy taratdi.
Beruniy zamin durin
kashf aylashga qaratdi.

Ulug'bekning qudratini
yulduzlar etmish ayon,
Rassom Behzod suvratini
olqishlar ahli jahon!

Qancha-qancha o'tdi davr,
merosdan bo'ldik yiroq!
O'zbek eli ko'rdi jabr,
tark etmadi g'am-firoq.

Shoh Iskandar yurish qildi –
o'lkalar bo'ldi vayron!
Sog' yuraklar xuruj qildi,
ko'plar bo'ldi nogiron!

Zulqarnayn eh-he, ko'plab
ko'rsatdi yovuzligin!
Spitamen kuchin to'plab
ayon etdi o'zligin!

Oppoq libos kiyganlarga
Muqanna bo'ldi sardor.
Arablardan kuyganlarga
jon tikdi Yalovbardor!

Vahshiy Chingiz bosqiniga
dosh bermadi barcha ham!
G'azab-nafrat toshqiniga
mo'g'ul keldi dam-badam!

Jaloliddin Manguberdi
sherdek dadil tashlandi.
Qilich bilan quloch kerdi:
dushman ko'zi yoshlandi!

Amir Temur bas keloldi
Boyazid lashkariga.
To'xtamishning boshin oldi –
kiritdi yer qa'riga!

Bir yuz qirq yil qaramlik ham
bor ekan peshonada!
Millatparvar ko'rdi sitam
mustabid zamonada!

Xayriyatki, bo'ldik erkin –
Istiqlol sharofati!
Ezgu yo'ldan yursa har kim
izmida saodati!

Davr keldi – davron keldi,
birlashaylik, ey do'stlar!
Dorilamon zamon keldi,
bellashaylik, ey do'stlar!

O‘ZBEKISTONIM

Hur o‘lkam bor – serquyosh nomi,
To‘rt faslda yorqin maqomi!
O‘zbek elim sharafi-shoni –
Jannatmakon – bog‘-u bo‘stonim,
Gullarga boy O‘zbekistonim!

Naqarot

O‘zbekiston – baxt-u iqbolim!
Ona yurtim – shon-iftixorim!

Tog‘ ortidan asta mo‘ralab,
Oftob chiqar qalbga o‘t qalab.
Sarxush sabo mayin allalab,
Zavq bag‘ishlar munavvar tongim –
Nurlarga boy O‘zbekistonim!

Naqarot

O‘zbekiston – baxt-u iqbolim!
Ona yurtim – shon-iftixorim!

Tuprogi – zar, mevasi – asal,
Dardga davo suvlari kavsar.
Bulbullari o‘qiydi g‘azal:
Qaynab toshar qalbda ilhomim,
Hurlarga boy O‘zbekistonim!

Naqarot

O‘zbekiston – baxt-u iqbolim!
Ona yurtim – shon-iftixorim!

Tabiatning yashil libosi,
Chamanzorda gullar ibosi.
Dilga orom qushlar navosi,
Maftun aylar jon-u jahonim –
Durlarga boy O‘zbekistonim!

Naqarot

O‘zbekiston – baxt-u iqbolim!
Ona yurtim – shon-iftixorim!

SEN JAHONDA YURLAR SARASI

Qo‘shiq

Oftob nuri yayrab cho‘milgan,
Go‘zal hayot fayzi yo‘g‘rilgan,
Xushbo‘y gullar atri ko‘milgan –
O‘zbekiston – nurga kon Vatan!

Barcha yurtlar asl sarasi,
Yuzdan ortiq millat qal‘asi,
Mo‘ldir pilla, paxta, g‘allasi –
O‘zbekiston – durga kon Vatan!

Suing – sharbat, yerlaring jannat,
Baxting ramzi – halol, zo‘r mehnat!
Boyliklaring – gavhar, xo‘b ziynat –
O‘zbekiston – sharaf-shon Vatan!

Osmono‘par tog‘laring bordir,
Ko‘rkam chaman, bog‘laring bordir,
Senga mangu nafasat yordir –
O‘zbekiston – sadqa jon Vatan!

Tanga darmon asal mevalar,
Keksa-yu yosh maqtab yeyarlar,
«Tilni yorar, bay-bay», deyarlar –
O‘zbekiston – ko‘p armon Vatan!

Bunda yangrar madhing sadosi,
Turfa qushlar nag‘ma-navosi,
Jon rohati – tonglar havosi –
O‘zbekiston – tanga jon Vatan!

Bosib olsin g‘anim o‘pkasin,
Badnom bo‘lar ag‘yor ko‘lkasi,
Bu yurt – mard-u maydon o‘lkasi –
O‘zbekiston – jonga jon Vatan!

Barham topgay kam-u ko‘stlaring,
Havas qilar senga do‘stlaring,
Mamnun boqar xalqing ko‘zlari –
O‘zbekiston – xush zamon Vatan!

YASHNA, VATANIM

Alloh nasib etgan jannat maskanim –
Bag‘ringda ko‘z ochib ulg‘aydi tanim.
Ulkan boy tarixing yo‘qdir jahonda,
Ulug‘ zotlar o‘tgan har bir zamonda:
Buxoriy, Termiziy – Islom olami,
Forobiy, Sinolar – dunyo armoni!
Beruniy qoldirgan har noyob kitob
Ziyosi o‘chmasdir – misoli oftob!
Mahmud Zamaxshariy – qomusiy olim,
Qoshg‘ariy ijodi turkiy-la ma‘lum.
Xorazmiy – riyozat ijodkoridir,
Farg‘oniy ilm-u fan sohibkoridir!